

**FARG'ONA VILOYATI SHEVALARI BAZASINI YARATISHNING UMUMIY NAZARIY ASOSLARI****ОБЩЕТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ БАЗЫ ДАННЫХ ДИАЛЕКТОВ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ****GENERAL THEORETICAL BASIS OF CREATING A DATABASE OF DIALECTS OF THE FERGANA REGION****Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslari ko'rib chiqiladi. Maqolada o'zbek xalqining etnogenezi va uning til rang-barangligiga ta'siri tahlil etilgan. Dialektologiya fanining ahamiyati, sheva, lahja va dialekt tushunchalarining mohiyati atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olimlarning o'zbek tili dialektologiyasiga qo'shgan hissasi, shuningdek, XX asrda bu sohada olib borilgan muhim tadqiqotlar o'rganilgan. Maqola shevalarni raqamlashtirish va elektron korpuslar yaratishning dolzarbligini asoslab beradi, bu jarayonning lingvistik, amaliy va ijtimoiy afzalliklarini ko'rsatadi. Xususan, dialektal korpusning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlillar uchun qimmatli manba bo'lishi, nutq sintezatorlari yaratishdagi o'rni, shuningdek, regional foydalanuvchilar va tadqiqotchilar uchun qulayliklari ta'kidlangan. Maqola o'zbek tilshunosligida dialektal korpus yaratishning zarurati va uning kelajakdagi ilmiy va amaliy imkoniyatlari bilan yakunlanadi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются общие теоретические основы создания базы диалектов Ферганской области. В статье анализируется этногенез узбекского народа и его влияние на языковое разнообразие. Подробно освещается значение науки диалектологии, сущность понятий шееа (диалект), лахджа (говор) и диалект. Также исследуется вклад таких ученых, как Махмуд Кашгари, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, в диалектологию узбекского языка, а также важные исследования, проведенные в этой области в XX веке. Статья обосновывает актуальность оцифровки диалектов и создания электронных корпусов, демонстрируя лингвистические, практические и социальные преимущества этого процесса. В частности, подчеркивается ценность диалектного корпуса как источника для фонетических, лексических, морфологических и синтаксических анализов, его роль в создании синтезаторов речи, а также удобство для региональных пользователей и исследователей. Статья завершается выводом о необходимости создания диалектного корпуса в узбекском языкознании и его будущих научных и практических возможностях.

Abstract

This article examines the general theoretical foundations for creating a database of Fergana region dialects. It analyzes the ethnogenesis of the Uzbek people and its influence on linguistic diversity. The significance of dialectology as a science, and the essence of the concepts of sheva (dialect), lahja (sub-dialect), and dialect are thoroughly explored. Furthermore, the contributions of scholars such as Mahmud Kashgari, Alisher Navoi, and Zahiriddin Muhammad Babur to Uzbek dialectology, as well as significant research conducted in this field in the 20th century, are investigated. The article justifies the relevance of digitizing dialects and creating electronic corpora, demonstrating the linguistic, practical, and social advantages of this process. In particular, it highlights the value of a dialectal corpus as a source for phonetic, lexical, morphological, and syntactic analyses, its role in developing speech synthesizers, and its convenience for regional users and researchers. The article concludes by emphasizing the necessity of creating a dialectal corpus in Uzbek linguistics and its future scientific and practical potential.

Kalit so'zlar: O'zbek dialektologiyasi, Farg'ona shevalari, til korpusi, elektron baza, lahja, dialekt, fonetika, leksika, grammatika, lingvistik tadqiqotlar, nutq sintezatori, raqamli tilshunoslik.

Ключевые слова: Узбекская диалектология, диалекты Ферганы, языковой корпус, электронная база, шееа, лахджа, фонетика, лексика, грамматика, лингвистические исследования, синтезатор речи, цифровая лингвистика.

Key words: Uzbek dialectology, Fergana dialects, language corpus, electronic database, sheva, lahja, phonetics, lexicology, grammar, linguistic research, speech synthesizer, digital linguistics.

KIRISH

O'zbek xalqining boy va murakkab tarixi turli etnik guruhlarining aralashib ketishi natijasida shakllangan. Bu holat o'zbek tilining, xususan, uning shevalarining rang-barangligida ham o'z aksini topgan. Har bir tilning boyishi tashqi va ichki manbalar asosida kechadi, shuningdek, bir hududda yashagan xalqlar va elatlarning shevalarida o'zaro o'zlashish holatlari kuzatiladi. Shevalarni o'rganish adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda sheva va lahja masalalarini o'rganuvchi soha **dialektologiya** deb ataladi. O'zbek dialektologiyasi ijtimoiy lingvistika fanlaridan biri bo'lib, o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, ularning shakllanish va tarqalish chegaralarini tadqiq etadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi va milliy-ma'naviy qadriyat hisoblanadi. Zero, ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham ularni asrab-avaylash zarur. Darhaqiqat, shevalarimiz bizning o'zligimizni, milliylikimizni va turmush tarzimizni ko'rsatib beruvchi manba va boyligimizdir. Ular adabiy tilimizning shakllanishi va takomillashib borishi uchun poydevordir. Bugungi kunda ularni o'rganish va tadqiq qilish tilshunoslik uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslarini ko'rib chiqadi, uning ahamiyatini, afzalliklarini va bu jarayonning amaliy tilshunoslik uchun qanday imkoniyatlar yaratishini yoritadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Dialektologiya" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilimni anglatadi. Sheva forscha "ravish, harakat tarzi, tarz, yo'sin, usul" ma'nolarini bildirib, fanda o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilining kichik hududga oid qismini anglatadi. **Lahja** arabcha so'z bo'lib, u ham ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'ldasini anglatadi. Sheva, dialekt, lahja tushunchalari mohiyatan bir ma'noni anglatadigan, turli tillardan olingan so'zlar bo'lsa-da, ularning o'rganish doirasi qisman farq qiladi. Sheva va dialekt tushunchalari deyarli bir xil, ammo lahja atamasi tadqiqot obyektining hududiy jihatdan kengroq o'rganilishi bilan farqlanadi. Masalan, o'zbek tili uch asosiy lahjaga asoslangan bo'lib, bular: qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi.

O'zbek adabiy tili uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Qadimgi davrlardan o'q tilning taraqqiyoti, uning tarkibi va guruhlariga bo'linishi olimlar diqqat-e'tiborida bo'lgan. **Mahmud Koshg'ariy** "Devonu lug'otit turk" (1961) [3] asarida turkiy tillarning qiyosiy lug'atini berib, ularni fonetik, morfologik, leksik tomondan tasniflagan. Keyinchalik **Alisher Navoiy** "Muhokamat ul-lug'atayn" [4] (2014), **Zahiriddin Muhammad Bobur** "Boburnoma" (2018) [5], **Mirza Mextixon** "Sangloh" asarida, **Abulg'oz Bahodirxon** "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlarida o'zbek tili va dialektologiyasining tarixiga doir boy meros qoldirganlar.

Mahmud Koshg'ariydan keyin o'zbek xalq shevalarini o'rganishga qiziqish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo'ldi. **Akademik B.B.Radlov**, **Ser Ali Lapin**, **V.Nalivkin** kabi olimlarning ishlari bunga misol bo'la oladi. XX asr boshlariga kelib, ayniqsa 1917-yildan so'ng, **Professor I.I.Zarubin**, **E.D.Polivanov**, **K.K.Yudaxin**, **A.K.Borovkov**, **G'oz Olim Yunusov**, **V.V.Reshetov** [1] kabi olimlarning o'zbek shevalarini o'rganish va uni guruhlashtirishdagi ishlari diqqatga sazovordir [6]. E.D.Polivanov "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" (1993) asarida o'zbek tilining ko'p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishini ta'kidlagan [1]. V.V.Reshetov o'zbek tili dialektal kartasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.

Ikki jildli "O'zbek dialektologiyasidan materiallar" (I jild, 1957; II jild, 1961), S.Ibrohimovning Andijon shevasi tadqiqiga bag'ishlangan asarlari, X.Doniyorovning "J-lashgan dialektlarni o'zbek adabiy tiliga qiyosan o'rganish tajribasi" (Toshkent: Fan, 1975), A. Shermatovning Qashqadaryo shevalariga, A.Aliyevning Namangan shevalariga, B. Jo'rayevning Shahrisabz shevasiga, A.Ishayevning Mang'it shevasiga, N. Rajabovning o'zbek xalq shevalarida fe'ning morfologik tuzilishiga, Sh.Nosirovning Qo'qon shevasiga, Q.Muhammadjonovning Janubiy Qozog'iston o'zbek shevalariga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek dialektologiyasini yuqori cho'qqiga olib chiqdi [2]. Ushbu ilmiy tadqiqotlar o'zbek dialektologiyasining muhim manbalari bo'lib xizmat qilmoqda.

TILSHUNOSLIK

Metodlar: Tadqiqotda mavjud adabiyotlar tahlili, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratish uchun zarur bo'lgan nazariy asoslarni shakllantirishda "kuzatish", "suhbat", "hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish", "ketma-ket joylash" metodlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunga qadar o'zbek shevalarining ayrimlari hududiy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da (Namangan, Andijon, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo), ularning ichki imkoniyatlarini elektronlashtirish, shevalar bazasini yaratish kabi masalalar hali ham ochiqlicha qolmoqda. Bu esa tadqiqotimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Jahon tilshunosligida raqamli axborot vositalaridan foydalanish qulayligi hamda internet orqali milliy tillarni o'zlashtirishga bo'lgan harakat ta'sirida milliy korpuslarda shevalar bazasini yaratish tendensiyasi o'smoqda. Bu esa tilda mavjud dialektlarni nafaqat lingvistik, balki amaliy jihatdan tadqiq etish, bu orqali sheva birliklarini saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish imkoniyatining ko'lamini kengaytirmoqda. Elektronlashtirilgan shevalar korpusining bir qancha afzalliklari bor:

- **Fonetik va fonologik tahlil:** Dialektning tovush tizimi, intonatsiyalar, urg'u va hissiyotlarni batafsil o'rganish uchun ma'lumot beradi.
- **Morfologik, leksik va so'z yasallishini o'rganish:** Dialektning morfologiyasi, leksikasi va so'z yasallish jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.
- **Idiomatik iboralarni o'rganish:** Shevadagi idiomalar, iboralar va ko'p so'zli iboralarning shakllanish tabiati va qo'llanish usullarini tadqiq etishga yordam beradi.
- **Sintaktik tuzilmalarni o'rganish:** Erkin nutq matnida ishlatiladigan jumlar, dialektida qo'llaniladigan turli sintaktik shakl va tuzilmalarni o'rganish uchun qimmatli ma'lumotdir.
- **Statistik tadqiqotlar:** Dialekt xususiyatlari bo'yicha statistik tadqiqotlar olib borish imkonini beradi.
- **Tilning madaniyat bilan bog'liqligini tekshirish:** Dialektning so'zlari, talaffuzi, grammatikasi, ma'nosi, qo'llanilishi, jinsi, madaniyati va boshqa ko'plab mavzulari bilan qanday bog'liqligini tekshirishga imkon beradi.
- **Grammatika haqida batafsil ma'lumotlar:** Dialektning grammatikasi haqida batafsil ma'lumotlarni taqdim etadi.
- **Fanlararo tadqiqotlar uchun manba:** Tilshunolar, antropologlar, sotsiologlar va etnograflar o'z tadqiqotlari uchun juda ko'p haqiqiy ma'lumotlarni topishadi.

O'zbek tili korpusi tarkibida Farg'ona viloyati dialektal korpusining lingvistik bazasini yaratish, o'zbek shevashunosligi muammolarini amaliy tilshunoslik tamoyillari asosida tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirishda ilmiy-nazariy asoslash bugunning muhim masalalaridir. Bunda Farg'ona viloyati shevalari korpusini shakllantirish orqali uning kompyuter uslubi, shevalarning xorijiy tillarga tarjima dasturlari va lug'atlari, elektron darsliklar yaratish bilan bog'liq ilmiy-metodik ishlanmalar va amaliy tavsiyalar tayyorlanadi. Dialektal korpusning ichki tizimiga oid ma'lumotlar, korpus bazasini tadrijiy to'ldirish, ma'lumotlarni kiritish ketma-ketligiga doir lingvistik ko'rsatmalar bilan birga, dialektal matnlarning *content*, *topic*, *genre*, *source*, *locations* kabi maydonlar to'ldirilishiga doir qarashlar aks ettirilishi lozim.

Farg'ona viloyati shevalarining lingvistik ta'minotini yaratish zamonaviy korpusshunoslik doirasida katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon hududiy dialektologik tadqiqotlarni tizimli asosda olib borish, mahalliy nutqiy birliklarning to'plami, ularning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini aniq qayd etish orqali dialektal resurslarni raqamli platformaga integratsiyalash imkonini beradi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi shevalari o'zining tarixiy shakllanishi, fonetik tizimining murakkabligi, ko'p qatlamli leksik qatlam va boshqa mintaqaviy lahjalarga ta'siri bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu shevalarning korpus ko'rinishida tasniflanishi nafaqat lingvistik tahlillarni yengillashtiradi, balki ularning amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishiga ham asos bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, shevalar asosida tuzilgan til korpusi bir nechta dolzarb lingvistik va ijtimoiy muammolarga yechim topishda xizmat qiladi:

1. **Foydalanuvchilarni o'z lahjasi, dialekti yangiliklaridan boxabar qilish:** Sayt yoki veb-dastur ko'rinishida yaratilgan dialektal korpus platformasi foydalanuvchilarga o'zlari mansub

bo'lgan lahja yoki dialektning xususiyatlari, ishlatilish shakllari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari haqida muntazam axborot taqdim etish imkonini beradi. Bu tilshunoslar, tadqiqotchilar, mahalliy aholi, talabalar va til o'rganuvchilar uchun foydali bo'ladi.

2. **Keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lish:** Yaratilgan dialektal ta'minot, ya'ni maxsus yig'ilgan, tasniflangan va raqamlashtirilgan sheva materiallari lingvistik korpus tarkibiga yuklanib, keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam empirik asos sifatida xizmat qiladi. Bu dialektologiya, areal tilshunoslik, sotsiolingvistika, tarixiy tilshunoslik kabi sohalarda olib boriladigan izlanishlar uchun muhim manba bo'ladi.

3. **Nutq sintezatori uchun manba sifatida foydalanish:** dialektal materiallar, ayniqsa ularning audio va transkripsiyalangan matn shaklidagi variantlari, zamonaviy nutq texnologiyalarini yaratish, xususan, o'zbek tilining nutq sintezatorini ishlab chiqish jarayonida muhim lingvistik resurs sifatida xizmat qilishi mumkin.

4. **Dialektologlarga transkripsiyasi bilan birga materiallarni taqdim etish:** foydalanuvchilarga, xususan dialektolog olimlarga, dialektal materiallarni transkripsiyalangan matni bilan birgalikda taqdim etish lingvistik tadqiqotlar jarayonini soddalashtiradi va tezlashtiradi.

5. **Aloqador so'zlar va iboralarni aniqlash:** dialektal ta'minot shevalar va lahjalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni taqqoslash imkoniyatini beradi. Bu orqali turli hududlarga xos bo'lgan shevalar va lahjalar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashliklar, farqlar, leksik almashinuvlar, fonetik o'zgarishlar hamda morfologik xususiyatlar ilmiy asosda taqqoslab o'rganiladi.

6. **Regional foydalanuvchilarga qaratilgan mahsulotlar va xizmatlar:** agar kompaniya yoki tashkilot biron bir hududga xizmat ko'rsatmoqchi bo'lsa, dialektal baza bu hududning dialektidagi so'z va ifodalarni tushunish hamda foydalanuvchilarni qiziqtirishga yordam beradi.

XULOSA

O'zbekiston hududida shevashunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar natijasida ayrim dialektologik atlaslar, xaritalar va matnlar to'plami yaratilgan bo'lsa-da, bu sohada raqamli texnologiyalar asosida tuzilgan, keng ko'lamli elektron korpuslarning yetishmasligi sezilarli bo'shliqni yuzaga keltirmoqda. Mavjud sheva atlaslari asosan bosma nashrlar ko'rinishida bo'lib, ularning amaliy va interaktiv foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Bu holat sheva materiallarini lingvistik, sotsiolingvistik, etnolingvistik va kompyuter lingvistikasi kabi sohalarda kompleks tadqiq etishga to'sqinlik qiladi.

Bugungi global tilshunoslikda korpus texnologiyalarining jadal rivojlanishi, elektron lug'atlar, matnlar bazalari, tilni avtomatik tahlil qilish dasturlarining keng qo'llanilishi milliy tillar, xususan, shevalarni raqamli shaklda saqlash va tahlil qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shevalar faqat og'zaki muloqot vositasi emas, balki tarixiy, madaniy, ijtimoiy xotirani o'zida aks ettiruvchi muhim til hodisasi sifatida qaralmoqda.

Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratish nafaqat mavjud ma'lumotlarni saqlab qoladi, balki yangi ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy materiallar yaratishga asos bo'ladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida talabalar ishtirokida olib borilayotgan dialektal ekspeditsiyalar va amaliyotlar jarayonida yig'ilgan materiallar ko'pincha qaydnomalarda qolib ketmoqda va ilmiy aylanishga kiritilmayapti. Bu esa, mavjud sheva resurslarining boyligi yetarli darajada namoyon bo'lmasligiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ilmiy yondashuvlar dialektologik ma'lumotlarni raqamlashtirish, ularni ochiq va interaktiv foydalanish imkoniyatiga ega elektron korpuslar shaklida tashkil etishni nafaqat dolzarb, balki zarur deb hisoblaydi. Bunday tashabbus nafaqat tilshunoslikka, balki madaniyatshunoslik, tarixshunoslik, axborot texnologiyalari kabi turli fanlararo yo'nalishlarga xizmat qiladi. O'zbek shevalari korpusini yaratish bir tomondan tilda mavjud birliklarning yo'qolib ketmasligini va unda milliy mentalitet aks etishini isbotlasa, ikkinchi tomondan dialektal materiallar bilan ishlash, qiyoslash, qo'llanish doirasini va boshqa tillardagi muqobillarini topish bilan bog'liq muammolarning oson yechimini taqdim etadi. Hozirda dialektal korpusni tuzish o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanalib, ishni amalga oshirish ekspeditsiya davomida yig'ilgan materiallarni (iqtisodiy-siyosiy, xo'jalik-maishiy hayotni aks ettiruvchi so'zlar, ertak, hikmatli so'z, maqol, matallar) va ular orqali tuzilgan lug'atlarni, sheva birliklari aks etgan matnlarni elektronlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дониёров Х. Ўзбек халкининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. — Toshkent: Navro'z, 2016.
3. Кошғарий М. Девону луғатит турк. I том. – Тошкент: Фан, 1961
4. A.Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn — Toshkent: Tafakkur, 2014
5. Z.M.Bobur. Boburnoma – Toshkent: Fan, 2018 214-b
6. А.Нурмонов. Танланган асарлар.2-жилд. б – 402
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sheva>
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dialektologiya>